



## SO‘Z VA MATBUOT ERKINLIGINI TA’MINLASHDA POLEMIKANING O‘RNI

E’tiqodxon Ataqulova,  
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada so‘z va matbuot erkinligini ta’minlashda polemika tushunchasining o‘ziga xosligi, jamiyatda ko‘p fikrlilikni rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurni o‘stirishga xizmat qilishda muhim ko’rsatkich bo‘lib xizmat qilishi borasida so‘z boradi. Bu borada “Ishonch” gazetasi va “Oyina.uz” internet maqolalar nashrida chop etilgan tahlilga tortildi. Polemik maqolalarning tahlili natijasida onlayn nashrlarda yangi tendensiya sifatida paydo bo‘lgan “onlayn chat” formati, so‘z va matbuot erkinligini ta’minlanishining yaqqol namunasidir.

**Kalit so‘zlar:** polemika, plyuralizm, tanqidiy tafakkur, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi, demokratiya, segment.

### 1.Kirish va gipoteza

Manbalarda qayd etilishicha, Yevropada o‘rtalarda dastlabki bosma varaqalar chiqa boshlagandayoq so‘z erkinligiga qarshilik ko‘rsatish hollari kuzatilgan. Vaholanki, o‘sha varaqalar jamiyatda yuz bergen yangiliklarni tarqatgan, xolos. Bir so‘z bilan aytganda, kishilarning yangilik va axborotga munosabati, ya’ni axborotni qabul qilish madaniyati insoniyat tamadduni tarixinining nihoyatda muhim, ziddiyatlarga to‘lib-toshgan g‘oyatda murakkab uзвиy bo‘lagini tashkil etadi. Shu boisdan ham matbuot erkinligi tevaragidagi bahs munozaralar, kelishmovchiliklar to‘xtamagan, bunday keyin ham to‘xtamasligi muqarrar. XVII asrda yashagan ingliz shoiri Jon Milton parlamentda nutq so‘zlab, matbuot erkinligi dushmanlarini qattiq qoralagani zamonaviy ma’nodagi demokratiya uchun kurashning debochasi sifatida e’tirof etiladi. Oradan vaqt o‘tdi va demokratiya tushunchasi dunyonи zabit etdi, endilikda mamlakatlarning taraqqiy topganligi, xalqlarning ma’rifatlilik darajasi so‘z, matbuot va fikr hurligi darajasi bilan belgilanmoqda. (Do’stmuhammad, 2005) Mashhur amerikalik huquqshunos Ralf Neyder ta’kidlaganidek, “axborot – demokratiyaning asosiy valyutasi. So‘z erkinligining alohida ta’rifi yo‘q, u qayerdan boshlanib qayerda tugashining aniq formulasi yo‘q. Biroq tarix va kelajak haqida bizga matbuot ko‘zgu bo‘la oladi”. Matbuot erkinligi so‘z, shaxs, vijdon erkinligi singari siyosiy huquqlardan biri bo‘lib, matbuotning erkin faoliyat ko‘rsatishini, kishilarning matbuotda o‘z fikr va tuyg‘ularini to‘siqlarsiz ifoda eta olishiga aytildi. Bir so‘z bilan aytganda, matbuot erkinligi demokratiya ko‘rinishlaridan biridir (Matbuot erkinligi, 2023).

DOI:

[https://doi.org/10.62499/  
ijmcc.vi.51](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.51)

Iqtibos:

Ataqulova, E’tiqodxon. 2024.  
So‘z va matbuot erkinligini  
ta’minlashda polemikaning  
o‘rni. Markaziy Osiyoda media  
va kommunikatsiyalar Xalqaro  
ilmiy jurnali. 5:17-24.

## 2.Ilmiy tadqiqot natijasi va muhokama

Jamiyatdagi hurfikrlilikni, odamlarning fikr va so‘z erkinligi borasidagi qarashlarini, inson huquqining ta’minlanganini ko‘rsatuvchi oyina bu shak-shubhasiz matbuotdir. Matbuot bor joyda so‘z erkinligi haqidagi bahs-munozaralar bo‘ladi. Sababi, demokratiya eng avvalo, xolislik, muvozanat, bahs, munosabat, murosadir. Fikrga murosa qilish, fikrga toqat qilishdir. Jamoyatchilik fikrining ustuvorligiga erishishdir (Do’stmuhammad, 2005). Matbuot erkinligiga erishish demokratianing asosiy vazifalaridan biri ekan, bu bevosita so‘z va fikr erkinligiga borib taqaladi. So‘z va fikr erkinligi esa turli usullarda, ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Misol uchun, notiqlar o‘z chiqishlarida, rassomlar chizgan suratlarida, yozuvchilar asarlarida, xalq esa o‘z huquq va erkinliklarini qay darajada anglaganini matbuotdagi chiqishlari belgilaydi. Sobiq sho‘rolar davridagi fikr, so‘z va matbuot erkinligini publisist Ahmadjon Meliboyev shunday ifodalaydi: «Sobiq tuzum o‘zining qabih niyatlarini amalga oshirishda matbuotdan qurol sifatida unumli foydalandi. Matbuotga odamlarning taqdirini hal qilish, jamiyat hayotidagi ko‘pgina masalalar yuzasidan uzil-kesil hukm chiqarish huquqi berilgandi. Tanqidiy mulohazaga mulohaza bilan javob qaytarish, ishdagi kamchiliklarning sabablarini izohlab berish u yoqda tursin, bu haqda hatto o‘ylashning o‘zi shakkoklik edi. “Pravda” nashri tanqid qildimi, bas, boshqa gapga o‘rin qolmasdi. Sho‘rolar jamiyatni matbuotni ataylab shunday soxta maqomga ko‘targan edi. Soxta deyayotganimizning boisi shuki, bir qarashda OAV katta kuchga, ta’sirchan vositaga egaday tuyulsa-da, aslida uning mustaqil fikri mutlaqo yo‘q edi» (2008).

Mamlakat mustaqilligining eng katta yutug‘i ham jamiyatda har bir insonning fikr va so‘z erkinligiga keng yo‘l ochib berilganidadir. Fikr jamiyatni rivojlanish holatida ushlab turadi. Fikrlar xilma-xilligi mavjud ekan, eng avvalo bahs-munozara yuritish imkoniyati vujudga keladi, jamiyat taraqqiyot sari yuz buradi. Bordi-yu buning aksi bo‘lib fikr mudray boshlasa, taraqqiyot to‘xtaydi, fikrda yakkahokimlik yuzaga keladi (Meliboyev, 2008). Birinchi prezident Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «Bizning matbuotimiz, televideniyemiz ham maqolalar chop etganda, ko‘rsatuvlar tayyorlaganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilishiga yo‘l qo‘ymaslik darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim» (1998). Shu nuqtai nazardan, jamiyatda so‘z va matbuot erkinligining takomillashishi mavjud qonuniyatlar va imkoniyatlarni qanchalik anganganligiga bog‘liq. Mamlakatda so‘z erkinligining mavjudligi erkin faoliyat olib borayotgan matbuot orqali namoyon bo‘ladi. Shuning uchun u barcha davrlarda ham oliy qadriyat sanalgan. Fikrni



erkin ifoda etish, haqiqat,adolatni qaror topishiga erishish uchun insoniyat qonli kurashlarni boshdan kechirdi, juda ko‘p qurbanlar berdi. Suqrotning har bir fikri uchun do‘pposlanishi, zahar ichishiga ham, Protagor va uning shogirdi Evatl o‘rtasidagi bahsga ham, «fikrlayapmanmi, demak mavjudman!» degan qarashni ilgari surgan Rene Dekartning qyinoqqa tortilishiga ham, Mansur Hallojning dorga osilishi-yu, Nasimiyning tiriklayin terisining shilib olinishiga ham erkin fikrga ehtiyojning ustuvorligi sabab bo‘lgan (Atakulova, 2023). XX asr boshlarida o‘zbek ma’rifatparvarlarining qatag‘onga uchrashiga eng katta sabablardan biri ularning hurfikrlilikka bo‘lgan intilishi, davriy matbuot orqali jamiyatda so‘z va fikr erkinligini ta’minalashga bo‘lgan targ‘ibotlari edi. Siyosiy arbob, yozuvchi Tomas Jefferson so‘z erkinligini e’zozlagan va shunday bayonot bergen: «Agar menga hal qil, gazetalarsiz hukumat kerakmi yoki hukumatsiz gazetalar deyishsa, men hech ikkilanmasdan ikkinchisini tanlagan bo‘lardim» (Nurmatov, 2019). Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratik jamiyatda davlat boshqaruvidan jamoatchilik boshqaruvi muhimroqligini anglash qiyin emas. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari intilayotgan mamlakatimiz uchun bu qadriyat juda ahamiyatlidir. Demokratiyani so‘z, fikr erkinligisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, zero, mazkur tushunchalar mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasasi birinchi qismida aynan fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi yaxlit bir butunlikdagi norma sifatida belgilangan. 33-moddaning ikkinchi qismida aks etgan har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga doir kafolat ham davlat chegaralaridan, shakllaridan qat’iy nazar turli axborot va g‘oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi. Aslida, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi insonning fundamental erkinliklari sirasiga taalluqli bo‘lib, bu me’yorning bevosita media sohasiga, OAV faoliyatiga doir jihatlari bilan jamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etadi (Alixonov, 2023). OAVga tegishli bo‘lgan boshqa bir qator xalqaro va milliy qonunchilikda ham so‘z va fikrni erkin ifoda etish belgilab qo‘yilgan. Jumladan, Fuqarolar va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt ning 19-moddasida, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida gi Yevropa Konvensiyasining 10-moddasida «har bir inson o‘z fikrini ifodalash erkinligiga ega» hamda «bu davlat organlari tomonidan aralashuvlarsiz va davlat chegaralaridan qat’iy nazar izlash, olish va tarqarish erkinligini o‘z ichiga olishi» ta’kidlangan (Qurban, 2022). Demokratik-liberal jamiyatda kimning haq va nimaning to‘g‘ri ekanini bilishning yagona qonuniy usuli tanqid va savol ostiga qo‘yish, bahs olib borish orqali amalga oshirilgan ijtimoiy munozaradir. Tanqid so‘z erkinligiga imkon berilgan joydagina mavjud bo‘ladi. Polemika

esa so‘z va fikr erkinligi negizida paydo bo‘ladi. Fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi hamda uni ifodalash insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Ifoda usullarini eng samarali shakli bu matbuotda qo‘zg‘atiladigan bahs-munozaralardir.

XX asrda o‘zbek matbuotida polemik maqolalar adabiyot bilan bog‘liq muammolar atrofida ko‘zga tashlanadi. Xususan, «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida maxsus «Bahs», «Bir asar haqida ikki xil fikr», «Jarayon» ruknlari ostida shunday mazmundagi maqolalar berilgan. Ayniqsa, istiqlol davri adabiyotining qanday bo‘lishi kerakligi haqida boshlangan bahs 1991–1995 yillar orasida boshlanib, oxirgi yillarda shiddatli tus oldi. Bu jarayonlarni gazeta muntazam yoritib bordi (Qurban, 2019). Jumladan, gazetada chop etilgan Nusrat Rahmatning «Mantiqni maddaga chorlasak», H.Saidovning «Behbudiylidida qarzdormiz» kabi bahsli maqolalari katta tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Behbudiyshunos Halim Saidning yozuvchi Nusrat Rahmat bilan bahsi Behbudiyning o‘limi sabablarini dalillar asosida hal qilib berishga intilishning natijasi edi (Abduazizova, 2007). Bahsmunozara fikrlarni charhlaydi, dunyoqarashni oshirib, muayyan muammo yuzasidan o‘ylashga, mulohaza qilishga, tadqiq va tahlil olib borishga undaydi. Bu kabi maqolalarning asosiy maqsadi ham no‘malum, jumboqli masalaga oydinlik kiritish, haqiqatni qaror toptirishga bahs orqali erishishdir (Qurban, 2019).

1990-yillarda matbuotda so‘z erkinligining yorqin namunasi sifatida shu yilning 1-oktabrida o‘z faoliyatini boshlagan «Muloqot» jurnali misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu davr barcha gazeta-jurnallarda «butun dunyo proleterlari, birlashingiz!» degan markscha xitob hukmron edi. «Muloqot» jurnali bu shiordan yuz o‘girgan birinchi jurnal sifatida tarixda qoldi. Uning o‘rniga A.Navoiyning «odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» degan hikmatli so‘zini shior qilib oldi (Abduazizova, 2007). Bu matbuotda fikrlar rivoji va yangilanishga bevosita xizmat qildi. Globallashgan va yangi tendensiyalarni tobora qamrab olayotgan bugungi matbuot so‘z va fikr erkinligiga, pluralizmga, bahsli mavzularga, tanqidiy-tahliliy chiqishlarga har qachongidan ham ko‘proq va jiddiyroq e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, maishiy mavzularda, ta’lim tizimidagi muammolarni olib chiqadigan ta’lim sohasida, sog‘liqni saqlash tizimidagi farmatsevtika qolaversa, siyosat, fan va tarix masalalaridagi bahslar keng muhokamali tortishuvlarga sabab bo‘lyapti. Xususan, 2023 yil «Oyina.uz» internet nashrida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Feruza Manukyanning «Ilmiy ishdagi yolg‘onlar: 90 foiz plagiatsiyya, 100 dan ortiq ilmiy ishga rahbarlik qilayotgan fan doktorlari va egizak tadqiqotlar tahlili» maqolasi keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. «Professor Baxtiyor Mengliyevning siri nimada?» (Professor, 2024). «Ko‘chirmakash,



emasman! Havolalar keltirganman – filologiya fanlari doktori Zavqiddin Suvonov» (Suvonov, 2024). «Ilm-fanning bosh maqsadi – rost va raso haqiqatni topishdir» (Maxmudov, 2024) kabi polemik maqolalar muhokamalarga javob tariqasida chop etildi. Shu bilan birga, «Oyina.uz» onlayn nashri mavzu doirasida «Olim bo‘lish arzonmi?» (Olim, 2024) sarlavhasi ostida oyina-chat loyihasini ishga tushirdi. Unda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan olimlar, soha mutaxassislari ishtiroki ta’minlandi va ikki mavzu doirasida «Antiplagiat dasturlarini takomillashtirish kerak», «Olim bo‘lish arzonmi?» mavzularida bahslar tashkillashtirildi. E’tiborli tomoni, chatda barcha xohlovchilar ishtiroki ta’minlandi. Shundan so‘ng, bahsni boshlab bergan muallif F. Manukyan ikkinchi «Sizga oyna tutdim: istang xatolaringizni tuzating, istang “qirolning yangi libosi”ni vasf etib yashayvering” sarlavhali maqolasini chop ettiradi» (Manukyan, 2024). Bu kabi misollardan ko‘rishimiz mumkinki, polemik maqolalar jamiyatning qaysi bo‘g‘inida paydo bo‘lishidan qat’iy nazar, plyuralizmni, tanqidiy tafakkurni, qolaversa, taraqqiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bilan mediada yangi online chat formati ishlendi. Auditoriya bilan ochiq muloqot o’rnatildi. Polemikada makon va zamon kategoriyasi ahamiyatsizdir. Buning isboti o’laroq, majburiy obuna, gazetalarning yashab qolishi yoki umuman yo‘q bo‘lishi, hududiy nashrlarning ahvoli haqidagi matbuotdagi bahslardir. Filologiya fanlari doktori, professor X.Do’stmuhammad matbuotda so‘z va fikr erkinligi, milliy mentalitet, milliy qadriyatlar, milliy matbuotni saqlash masalasida tez-tez bahs munozaralar qo‘zg‘alib turishini va bunday bahs-munozaralardan qochish emas, balki tug‘ilgan fikrlarni, nuqtai nazarlarni ochiq-oshkora o‘rtaga tashlashgina masala-muammolarga oydinlik kiritishga yordam beradi, deb keltiradi. Gazetalarga nisbatan inqiroz davri keldi, deb bong urish bilan buni hali hech kim ilmiy jihatdan asoslaganicha yo‘q. Ammo uning mazmuni, gazeta sahifalarida aks etishi kerak bo‘lgan mavzularga talab o‘zgargani yo‘q. Bu borada ayrim gazetalar hali ham jamiyatning ko‘zgusi vazifasini o‘tamoqda. Matbuot so‘ziga e’tiborning susayishiga ma’lum ma’noda jurnalistlarning ham aybi borligini keltiradi. Buning izohi shundaki, gazetalarning birida bugun biron bir korxona faoliyati jiddiy tanqid qilinsa, oradan bir hafta o‘tmay boshqa bir gazetada ayni shu korxona ko‘klarga ko‘tarilib maqtaladi. Bunday buyurtma maqolalar jamoyatchilikni chalg‘itadi (Meliboyev, 2008). Xalqning matbuotga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Zero, matbuotning demokratik jamiyatdagi asosiy vazifasi jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish orqali nazoratni amalga oshirishdan iborat. Bu hamma davr uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, «Ishonch» gazetasi 2022-yil davomida 236 ta tanqidiy, munozarali materiallarni chop etgan va munosabat bildirish uchun

tegishli hokimlik, vazirlik va tashkilotlarga yuborgan. Biroq, 119 tasiga javob kelmagan. Vaholanki, «OAV to‘g‘risida» gi hamda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risi» dagi qonunlarda OAV tahririyatlaridan kelib tushgan murojaatlar tegishli tartibda ko‘rib chiqilishi zarurligi qayd etilgan. Davlat xizmatining yuqori organlarining bu e’tiborsizligiga javoban gazeta tahririyati ham jum turmadi. 2023-yil 31-yanvar sonida chop etilgan «Matbuotga munosabat shumi?» (Ermakov, 2023) sarlavhali maqolasida O‘zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasiga, Prezident Adminstratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga murojaat uslubida yozgan. Maqolada javob xati kelmagan 119 ta tashkilotning nomi, maqola sarlavhasi va chop etilgan sanasi bilan birga ko‘rsatilgan. Bu vaziyatda tabiiy savol tug‘iladi. Jamiyatda davriy nashrlarga bo‘lgan munosabat shumi yoki javob kelmagan korxona va vazirliklar markaziy nashrlarni ko‘rmayaptimi? Gazeta bosh muharriri H. Ermakov, bugun bosh voizlik internet tarmoqlari qo‘liga o‘tdi. Jamiyatimizning old ziyolilari deb yurgan ba’zi do’stlarimiz ming afsuski «gazetalar asri tugadi» deb nomlangan kompaniyaga bosh bo‘lishmoqda degan fikrni bildiradi. So‘kishlar, haqoratlar, oldi qochdi, kuydi-chiqdi haqidagi mish-mishlarga to‘la internetdagi milliy lahtagimiz (segment) bugun «bosh» tarbiyachiga aylandi, deb izohlaydi. Polemika yangi qarashlar paydo bo‘lganda, umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlarini himoya qilinganda, jamoatchilik fikriga ta’sirni shakllantirilayotganda muhim hisoblanadi (Turobova, 2023).

### 3.Xulosalar

Davriy nashrlardagi polemik maqolalar u yoki bu masala yuzasidan auditoriya fikrini uyg‘otishga, tanqidiy fikrlashni o‘sirishga xizmat qiladi. Aslida hayotning o‘zi turli-tuman g‘oyalar kurashi, bahsmunozarlardan iborat. Hamma gap kurashda va sinovlarga tayyor turishda, ogoh va sergak bo‘lishda. Mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘z kuchiga ishongan inson fikrlar xilma-xilligidan cho‘chimaydi. So‘z erkinligisiz demokratik jamiyat barpo bo‘lmasligi, inson o‘z fikrini bayon qilolmasligi va erkin muloqotga kirisholmaslik vaziyatida matbuot erkinligi haqida so‘z ham bo‘lmasligi, tabiiy. Zero, fikr va so‘z erkinligi matbuot erkinligini ta’minlab turuvchi muhim tamoyillardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Abduazizova, N. 2007. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (yangilanish va ravnaq topish jarayonlari). Toshkent. Akademiya. 64.
- Alixonov, B. 2023. Hur so'z-haloskor kuch. «Hurriyat» gazetasi №12.
- Do'stmuhammad, X. 2005. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. Toshkent. O'zbekiston. 39-40.
- Ermatov, H. 2023. Matbuotga munosabat shumi? «Ishonch» gazetasi. 31 yanvar.
- Ermatov, H. 2022. Bosma nashrlar transformatsiyasi: u nimalarga va kimgarga bog'liq bo'lib qolmoqda? Farg'ona. 118-121.
- Nurmatov, A.; Do'stqorayev, B.; Mo'minov, F.; Saidov, H.; Toshpo'latova, N.; Maxsumova, S. 2019. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. Toshkent. 120.
- Matbuot erkinligi. 2024. URL: <https://kun.uz/uz/news/2023/05/03/ozbekiston-matbuot-erkinligi-reytingida-137-oringa-tushdi?ysclid=lus3n648ss77604126> Мурожаат санаси: 18.04.2024.
- Meliboyev, A. 2008. Qirq beshinchı bekat. Toshkent. 113.
- Karimov, I.A. 1998. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 152.
- Turabova, S. 2020. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput) ning mantiqiy-epistemik tahlili. Termiz. Surxon nashr. 46.
- Haqiqat manzaralari. 2013. Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar 100 mumtoz faylasuf. Toshkent. 55.
- Professor Baxtiyor Mengliyevning siri nimada? 2024. URL: <https://oyina.uz/uz/article/2398> Мурожаат санаси: 18.04.2024.
- Suvonov, Z. 2024. Ko'chirmakash emasman! Havolalar keltirganman. URL: <https://oyina.uz/uz/article/2402> Мурожаат санаси: 18.04.2024.
- Maxmudov, N. 2024. Ilm-fanning bosh maqsadi – rost va raso haqiqatni topishdir. URL: <https://oyina.uz/uz/article/2406> Мурожаат санаси: 18.04.2024.
- Olim bo'lish arzonmi? 2024. URL: <https://xabar.uz/uz/talim/olim-bolish> Мурожаат санаси: 18.04.2024.
- Qurban, Nazira, Bahriyev, Karim. 2022. Media huquqi. Toshkent. Grand Inter Media. 29.
- Qurban, Nazira. 2019. Tahliliy jurnalistika. Toshkent. Bayoz. 114.

### **Muallif haqida:**

ATAKULOVA E'tiqodxon Salohiddinovna — O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi (O'zbekiston, 100027, Toshkent, Yunusobod tumani, Kiyot massivi, 88-uy),  
yokutnashriyoti@mail.ru

## РОЛЬ ПОЛЕМИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СВОБОДЫ СЛОВА И ПРЕССЫ

**Аннотация:** В статье рассматривается уникальность понятия полемики в обеспечении свободы слова и печати, а также то, как она служит важным индикатором развития плюрализма в обществе и развития критического мышления. В связи с этим будут проанализированы статьи, опубликованные в газете «Ишанч» и интернет-издании «Ойина.уз». Формат «онлайн-чата», возникший как новый тренд интернет-изданий в результате анализа полемических статей, является наглядным примером обеспечения свободы слова и печати.

**Ключевые слова:** полемика, плюрализм, критическое мышление, свобода слова, свобода печати, демократия, сегмент.

### Об авторах:

АТАКУЛОВА Эътиқодхон Салоҳиддиновна — старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, г. Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), yoqutnashriyoti@mail.ru

## THE ROLE OF POLEMICS IN ENSURING FREEDOM OF SPEECH AND THE PRESS

**Abstract:** The article examines the uniqueness of the concept of polemics in ensuring freedom of speech and the press, as well as how it serves as an important indicator of the development of pluralism in society and the development of critical thinking. In this regard, articles published in the newspaper “Ishanch” and the online publication “Oyina.uz” will be analyzed. The “online chat” format, which emerged as a new trend in online publications as a result of the analysis of polemical articles, is a clear example of ensuring freedom of speech and press.

**Keywords:** polemics, pluralism, critical thinking, freedom of speech, freedom of the press, democracy, segment.

### About the author:

ATAKULOVA E'tiqodkhon Salohiddinovna — headteacher, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), yoqutnashriyoti@mail.ru